

MAISHIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLUVCHI TASHKILOTLAR FAOLIYATI BO'YICHA JAHON TAJRIBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH

B.A. Yerejepova

Qoraqalpoq davlat universiteti,
«Menejment va iqtisodiyot asoslari» kafedrası dotsenti.

erezepovabibisara159@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20792796>

Annotatsiya. Maqolada xizmatlar sifatini boshqarishda o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar (SRO)ning institutsional roli va ularning turli mamlakatlardagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. SROlar reklama, moliya vositachiligi, yuridik yordam, professional xizmatlar va qurilish singari xizmat tarmoqlarida standartlar, monitoring va majburlash (enforcement) orqali sifatni oshiradi. SROlardan maishiy xizmatlar sohasida foydalanishning jahon tajribalari, shuningdek O'zbekistonda SROlar haqidagi hujjatlar va mahalliy tadqiqotlar asosida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: maishiy xizmat, samaradorlik, xizmat sifati, o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot, model, standartlashtirish, monitoring.

Abstract. The article examines the institutional role of self-regulatory organizations (SRO) in service quality management and their effectiveness in various countries. SROs improve quality through standards, monitoring, and enforcement in service sectors such as advertising, financial intermediation, legal aid, professional services, and construction. Conclusions are provided based on materials from OECD, FINRA (USA), ASA (Great Britain), JSDA (Japan), Canadian legal societies and Korean advertising, as well as documents on SROs in Uzbekistan and local studies.

Keywords: household services, efficiency, service quality, self-regulating organization, model, standardization, monitoring.

Kirish

Boshqa sohalardagi kabi maishiy xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligi bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lib, tashkiliy boshqaruv tizimini takomillashtirishni zarurat etadi.

Maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon korxona xodimlarini va resurslarini samarali boshqarish, xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish, ko'rsatilayotgan maishiy xizmatlarning iste'molchilar talablariga mos kelishi orqali ta'minlanadi. Respublikamizda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimini boshqarish va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi alohida davlat organi mavjud bo'lib, 1990-yillarda bu soha "O'zmaishiyxizmatuyushma" nomli uyushma tomonidan tartibga solingan. Mazkur uyushma aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va tizim xodimlarining kasbiy malakasini oshirish kabi vazifalarni bajargan.

Hozirda esa aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish tarqoq rivojlanayotgan soha bo'lganligi uchun bu yerda ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori va sifatini aniq hisobga olish qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Binobarin, xizmat sifati, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalarida hali ham ayrim muammolar mavjud. Bunday muammolar sifatida, xizmat ko'rsatish standartlarining aniq emasligi, sifat nazorati tizimining zaifligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish muammolarini aytish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat xizmat ko'rsatish sohalarida yagona standartlar mavjud emas yoki kam qo'llaniladi, xizmat ko'rsatish sifati va mijozlarning qoniqish darajasi muntazam nazorat qilinmaydi. Davlat organlari tomonidan maishiy xizmatlarni nazorat qilish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, sohaning tarqoqligi tufayli ularning ishlashi samarasiz bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolar echimini topishda, O'zbekistonda maishiy xizmatlar sifati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni yaxshilash uchun jahon tajribasiga asoslangan o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar SRO (Self-Regulatory Organizations) tizimini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, ko'plab mamlakatlarda ushbu tashkilotlar davlat organlari bilan hamkorlikda ishlaydi va xizmat ko'rsatish standartlarini belgilash, nazorat qilish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari xorijlik olimlardan A.Parasuraman, V.Zeithaml, L.Berry, MDH mamlakatlari olimlaridan N.A.Baturina, L.A.Pashkevich, D.R.Gibadullina, D.G.Dem'yanov va boshqalar¹ tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Vatanimiz olimlaridan mazkur muammolarni o'rganishga Pardaev M.Q., Saidov A.M., Artikova Sh.I., Yerejepova B.A. va boshqalarning² ilmiy ishlari bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlar maishiy xizmatlar sohasining rivojlanishi va uning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini yoritadi, ammo o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar mavzusini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli, O'zbekistonda SROlarning maishiy xizmatlar sifatini oshirishdagi roli bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazish dolzarbdir.

Tadqiqotning usullari. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarning maishiy xizmatlar sifatini oshirishdagi samarali faoliyati bo'yicha xorij tajribalarini o'rganish asosida tadqiqot ishida solishtirma tahlil usulidan foydalanilgan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar maishiy xizmatlar sifatini oshirishga samarali hissa qo'shadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida maishiy xizmatlar sohasida samarali faoliyat olib boruvchi bir nechta SRO tizimlari mavjud bo'lib, ushbu tashkilotlar Yevropa standartlariga mos keladigan xizmatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. European Cleaning and Facility Services Industry (EFCI) — Yevropadagi tozalash va obyektlarga xizmat ko'rsatish sanoatini birlashtiruvchi tashkilot bo'lib, 1988-yilda tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi — ushbu sohadagi milliy professional tashkilotlarni birlashtirish va ularning manfaatlarini himoya qilishdir.

AQShda ham maishiy xizmatlar sohasida Better Business Bureau (BBB), National Air Duct Cleaners Association (NADCA), Cleaning Industry Research Institute (CIRI) kabi ko'plab SRO faoliyat yuritadi. Ular iste'molchilarga ishonchli xizmat ko'rsatuvchilarni tanlashda yordam beradi va kompaniyalarni baholaydi, maishiy xizmatlar sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ilg'or texnologiyalarni targ'ib qiladi. Bu tashkilotlar iste'molchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari ayniqsa Yaponiyada yaxshi yo'lga qo'yilgan va maishiy xizmatlar katta e'tibor bilan tartibga solinadi. Masalan, Japan Cleaning Service

¹Власова М.В., Батурина Н.А., Пашкевич Л.А. Мониторинг ассортимента и качества услуг на потребительском рынке // Вестник Орел ГИЭТ. 2020. № 1 (51). – 109-114 с.; Гибадуллина Д.Р., «Развитие сфер бытового обслуживания в России» Проблемы социально-экономической устойчивости региона. 2020. С. 74-77; Демьянов Д.Г. Моделирование территориального развития сферы бытовых услуг // Вестник Пермского университета. Серия: Экономика. 2014. № 3;

²Pardaev M.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. «Zarafshon», 2009. - 66 b. - 4.1 b.t.; Saidov A.M. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish yo'llari. i.f.n. diss. – Samarqand. SamISI. 2011; Artikova Sh.I. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. // diss. PhD. – T.: SamISI. 2023. 140 b., Yerejepova B.A. Maishiy xizmatlar sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). // diss. PhD. – N.: QQDU. 2024. 164 b.

Association (JCSA) – professional tozalash xizmatlari sifatini oshirish va me'yorlarini belgilash bilan shug'ullanadi, Home Service Industry Association of Japan – uy xizmatlari va texnik xizmatlar sohasida SRO sifatida ishlaydi. O'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari dunyo davlatlarida allaqachon samaradorligini isbotlagan; biroq, O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida bu tashkilotlar hali ommalashmagan. O'zbekiston sharoitida ham Yevropa, AQSh va Yaponiya modellaridan foydalanib, standartlashtirish, monitoring, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilishi mumkin.


Jahon davlatlari tajribalarida sinalgan o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar (SRO) xizmatlaridan sifatini oshirish va mijozlar ishonchini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin. Masalan, EFCI modeliga asoslangan holda, milliy darajada SRO tashkil etish va tozalash, texnik xizmat ko'rsatish kabi sohalar bo'yicha sifat me'yorlarini belgilash mumkin.

AQSh ning Better Business Bureau (BBB) modeliga asoslanib, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi milliy platforma yaratish, maishiy xizmat ko'rsatuvchilarni baholash va reyting berish tizimini ishlab chiqish va joriy etish xizmat sifatini oshirishga olib keladi.

Yaponiya tajribasi asosida mahalliy xizmat ko'rsatish kompaniyalari uchun malaka oshirish va baholash tizimi yaratish, ularning xizmatlarini doimiy sifat monitoringidan o'tkazish mumkin. O'zbekistonda maishiy xizmatlar sifati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni yaxshilash uchun jahon tajribasiga asoslangan SRO tizimini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

SRO — ma'lum soha (yoki kasb) ishtirokchilarini birlashtirgan notijorat uyushma bo'lib, a'zolar uchun majburiy qoidalar va standartlarni ishlab chiqadi, rioyati monitoring qiladi, shikoyatlarni ko'rib chiqadi va ko'pincha kompensatsiya jamg'armalari orqali javobgarlikni ta'minlaydi. Masalan, Qozog'istonda SROlar "ixtiyoriy yoki majburiy a'zolik" asosida tuziladi va "qoidalar hamda standartlar"ni joriy etadi. Maishiy xizmatlar sifati muammolari maishiy xizmatlarning har bir yo'nalishi bo'yicha o'zini o'zi tartibga solishning tashkiliy tuzilmasi sifatida tadbirkorlar birlashmasi asosida hal qilinishi mumkin. Maishiy xizmat sohasida o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmasini quyidagi sxema shaklida ifodalash mumkin.

Bizning fikrimizcha, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish jarayonida o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot va mahalliy ma'muriyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sxemasi o'rtasida o'zaro muvofiqlik ta'minlanishi zarur.



Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish jarayonida o'zini o'zi tartibga solishning tashkiliy tuzilmasi

***O'TST – O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot.**

Ushbu sxema hududda bir tomondan maishiy xizmatlar ko'rsatadigan mahalliy hokimiyatlar va ikkinchi tomondan tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga imkon beradi. Bunday vaziyatda tadbirkorlar faoliyatini muntazam monitoring qilib borish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifatini nazorat qilishni kuchaytirish imkonini paydo bo'ladi.

Davlat tomonidan tartibga solish institutini rivojlantirishdagi muhim qadam "Tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarini o'z-o'zini tartibga solish to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokama qilinmoqda [5].

Mazkur hujjat "tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarini o'z-o'zini tartibga solishi bo'yicha jamoa bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solishi, o'z-o'zini tartibga soluvchi organlar faoliyatini tashkil etish va ularning huquqiy maqomini, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini belgilashi rejalashtirilmoqda" [5].

O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot – tadbirkorlik subyektlarining ixtiyoriy a'zolariga (ishtirokiga) asoslangan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan assotsiatsiya (ittifoq), jamoat birlashmasi yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi notijorat tashkilot.

O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot ixtiyoriy yoki majburiy a'zolik shaklida tashkil etiladi.

O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:

- agar o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarga nisbatan qonunlarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot tarkibida kamida 25 ta tadbirkorlik subyektlarining yoki ma'lum bir turdagi kamida 100 ta professional faoliyat subyektlarining a'zolari sifatida birlashish;

- o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan tadbirkorlik yoki professional faoliyat uchun standartlar va qoidalarining mavjudligi;

- o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilot tomonidan uning har bir a'zosining ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) iste'molchilari va boshqa shaxslar oldida qo'shimcha mulkiy javobgarligini ta'minlashi [4].

Ushbu loyiha doirasida O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish institutlarini rivojlantirish yagona umumdavlat modelini shakllantirish nazarda tutilgan va loyihada quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish talab qilinadi:

- maishiy xizmat ko'rsatish sohasida tarmoq birligini ta'minlash maqsadida, korxona va tashkilotlarni va o'zini o'zi tartibga solishni shakllantirishda integratsiyalashuv tamoyillari asosida birlashtirish;

- o'zini o'zi tartibga solish tashkilotlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyat natijalari va obro'-e'tibor risklari uchun konsolidatsiyalashgan ma'suliyat;

- o'zini o'zi tartibga solish tashkilotlari ishtirokchilarining o'zini o'zi tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun ularning faoliyatini tartibga soluvchi o'z me'yoriy hujjatlarni yaratish;

- o'zini o'zi tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish uchun o'zini o'zi tartibga solish tashkilotlari ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

- o'zini o'zi tartibga solish tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda shaffoflik, ochiqlikni ta'minlash.

Hozirgi vaqtda amalda bo'lgan davlat dasturi va me'yoriy hujjatlarda tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini tartibga solishda davlat ishtirokining ortiqchaligini belgilovchi yetarli darajada asoslangan mezonlar mavjud emas. "Bu o'z navbatida, davlatning tartibga solish vakolatlarini, birinchi navbatda, davlat organlari va o'zini o'zi tartibga solish tizimining jamoat tashkilotlarining milliy birlashmalari – makrodarajada tadbirkorlar uyushmalari o'rtasida amalga oshirishi natijadorligini pasayishi hamda davlatning tartibga solish funksiyalarining takrorlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik tuzilmalari zimmasiga yangi tartibga soluvchilarning paydo bo'lishi va natijada tadbirkorlik subyektlarining yangi moliyaviy xarajatlari ustiga qo'shimcha va asossiz yuklarning oldini olish zarur" [4].

O'z-o'zini tartibga solish tadbirkorlik yoki kasbiy faoliyat subyektlarining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarga birlashishi shartlari asosida amalga oshiriladi.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkiloti uning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan tadbirkorlik yoki kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qo'yiladigan talablar sifatida tushuniladigan va o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotning standartlari va qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotning standartlari va qoidalari quyidagilardan tashkil topadi:

- o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotning standartlari va qoidalari talablarini buzganlik uchun o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zolariga nisbatan intizomiy jazo choralari ko'rish;

- ishbilarmonlik odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zolari, ularning xodimlari va doimiy kollegial boshqaruv organi a'zolarining manfaatlari to'qnashuvini bartaraf etish yoki kamaytirish;

- o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zolarining boshqa tashkilotlar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar zarariga aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi faoliyatiga chek qo'yish hamda nohaq raqobat, ma'naviy zarar yetkazuvchi hatti-harakatlarning oldini oluvchi talablarni belgilash;

- maishiy xizmatlar iste'molchilariga va boshqa shaxslarga zarar yetkazish, o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zosining ishchanlik obro'si yoki o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan harakatlarni bartaraf qilish [4].

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotiga a'zolik, yuqoridagi qoidalarga muvofiq taqdim qilinayotgan xizmatlar sifati sohasida yagona siyosatni amalga oshirishni nazarda tutishi kerak, bu esa dasturiy hujjatni qabul qilishni nazarda tutadi.

Mazkur sohada o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zolari uchun majburiy bo'lgan sifat siyosatining asosiy elementlarini ishlab chiqishda davlat standartlari talablarini hisobga olish va unga muvofiqlashtirish zarur. Bunda sohada o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot a'zolarining ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan sifat sohasidagi umumiy siyosatga asoslanib, xususiy siyosat har bir a'zo tomonidan alohida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Sifat siyosatini amalga oshirish uchun mas'uliyat maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi rahbari zimmasiga yuklanadi, u alohida xizmatlar, bo'limlar, ishchilar hamda menejerlar uchun asosiy vazifalarni batafsil belgilab beradi.

Nazarimizda xizmat sifati siyosatining asosiy maqsadi mijozlar umidlari va kutishlariga mos, belgilangan sifat standartlariga va ekologik talablarga muvofiq maishiy xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lishi lozim.

Xizmatlar sifati sohasida o'z tadqiqotlarini olib borgan A. Parasuraman, V. Zeithaml, L.Berry larning fikricha, "xizmat sifati... mijoz kutilmalari va idroklari o'rtasidagi tafovutga bog'liq" bo'ladi [1]. Bunda, Parasuraman va uning hamkorlari SERVQUAL modelini nazariy asos sifatida ishlab chiqishgan. Ular xizmat sifati haqidagi mijoz tasavvuri ikki asosiy omilga bog'liqligini ta'kidlashadi: mijoz kutgan xizmat (Expectations) – mijoz xizmatdan oldin qanday sifatni kutayotganini bildiradi va mijoz idrok etgan xizmat (Perceptions) – mijoz xizmatni olgandan keyingi real tajribasi. Agar mijozning real idroki kutilgan darajaga teng yoki undan yuqori bo'lsa, mijoz xizmatni sifatli deb baholaydi. Agar real tajriba kutilganidan past bo'lsa, mijozda norozilik va sifatsizlik hissi paydo bo'ladi. Ushbu tafovut (gap) xizmat sifatini o'lchashda asosiy mezon sifatida qabul qilinadi va keyinchalik "SERVQUAL" modeli orqali 5 o'lchovda (reliability, responsiveness, assurance, empathy, tangibles) baholanadi.

Agar O'zbekistonda ham jahon tajribasi asosida maishiy xizmatlar sohasida o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarni yo'lga qo'yilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Kasbiy standartlar va malaka talablarini belgilash natijasida xizmatlarning professional darajasi ortadi, masalan, maishiy texnika ta'miri, sartareshlik, kimyoviy tozalash, jihoz o'rnatish bo'yicha minimal xizmat standarti, ustalarning malaka darajasi (sertifikatlash). OECD amaliyotida bunday standartlar iste'molchiga tushunarli axborot beradi va sifatsiz xizmatlarni kamaytiradi;

- Shikoyatlarni ko'rib chiqish va baholash tizimi orqali mijozlarning noroziligini kamaytirish mumkin bo'ladi va iste'molchilar huquqlari himoya qilinadi;

- SROga a'zo bo'lgan kompaniyalar o'z xizmat sifatini oshirishga harakat qiladi va raqobat muhitini yaxshilaydi;

- Ishchilar uchun malaka oshirish kurslari va treninglar yo'lga qo'yiladi va kasbiy rivojlanish tizimi yaratiladi;

- SRO mustaqil ishlashi tufayli davlat organlari nazorat yukidan ozod bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Parasuraman., V. Zeithaml., L. Berry., "A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research". *Journal of Marketing*, 1985-yil, 49-jild, 41–50-b.
2. Петров Д.А. Правовой статус саморегулируемой организации в сфере предпринимательства // СПб.: Нестор-История. 2015. (320).
3. Artikova Sh.I. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Diss. PhD. – Samarqand: SamISI, 2023. 127-128-b.
4. Yerejepova B.A. Maishiy xizmatlar sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). // дисс. PhD. – N.: QQDU. 2024. 164 b.

Internet sayt:

5. https://www.norma.uz/nhh_loyihalari/uz-uzini_tartibga_soluvchi_tashkilotlar_faoliyati_qonuniylashtiriladi